

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF THE LINGUOCULTURAL RESEARCH OF THE CONCEPT OF HOME / UY IN ENGLISH AND KARAKALPAK LANGUAGES

Feruza Muratbayevna Kalkhorazova

*Trainee-teacher of Karakalpak State University
Nukus, Karakalpakstan*

ABOUT ARTICLE

Key words: linguoculturology, concept, home, uy, national mentality, cultural semantics.

Received: 01.01.26

Accepted: 02.01.26

Published: 03.01.26

Abstract: The article explores the linguocultural features of the home / uy concept in English and Karakalpak from a theoretical and methodological perspective. The study is based on the principles of cognitive linguistics and linguoculturology, focusing on the identification of the core and peripheral components of the concept. Using paremiological units, phraseological expressions, and discourse examples, the paper provides a comparative analysis of the national and cultural content of the home / uy concept. The findings demonstrate that the concept of home carries a positive axiological value in both languages; however, its semantic realization is shaped by national mentality and cultural experience.

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA HOME / UY KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQIDAGI NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Feruza Muratbayevna Kalkhorazova

*Qoraqalpoq davlat universiteti stajyor-o'qituvchisi
Nukus, Qoraqalpog'iston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, konsept, home, uy, milliy mentalitet, madaniy semantika.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va qoraqalpoq tillarida home / uy konseptining lingvokulturologik xususiyatlari nazariy va metodologik asosda yoritiladi. Tadqiqot kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya yondashuvlariga tayangan holda amalga oshirilib, konseptning yadroviy va periferik qatlamlari aniqlanadi. Shuningdek,

paremiologik birliklar, frazeologizmlar va diskursiv misollar asosida home / uy konseptining milliy-madaniy mazmuni qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari uy konseptining har ikki tilda ham ijobiy aksiologik bahoga ega ekanini, biroq uning semantik to'ldirilishi milliy mentalitet bilan belgilanajagini ko'rsatadi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ КОНЦЕПТ ДОМ /УЙ НА АНГЛИЙСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ

Феруза Муратбаевна Калхоразова

Стажер-преподаватель

Каракалпакского государственного университета

Нукус, Каракалпакстан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:	В	статье
лингвокультурология, концепт, home, uy, национальный менталитет, культурная семантика.		рассматриваются лингвокультурологические особенности концепта home / uy в английском и каракалпакском языках с теоретико-методологической точки зрения. Исследование основано на принципах когнитивной лингвистики и лингвокультурологии, в рамках которых выявляются ядерные и периферийные признаки концепта. На материале паремиологических единиц, фразеологизмов и дискурсивных примеров проводится сопоставительный анализ национально-культурного содержания концепта home / uy. Результаты исследования показывают, что концепт дома в обоих языках обладает положительной аксиологической оценкой, однако его семантическое наполнение определяется национальным менталитетом.		

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ayniqsa, lingvokulturologiya va kognitiv lingvistika doirasida konseptlar tahlili milliy tafakkur, qadriyatlar va madaniy stereotiplarni ochib berishda samarali metod sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, home / uy konsepti inson hayotida markaziy o'rin tutuvchi universal, biroq ayni paytda milliy-madaniy jihatdan rang-barang tushuncha sifatida alohida e'tiborni talab etadi.

Avvalo, ingliz tilida home tushunchasi shaxsiy erkinlik, xavfsizlik, individual hudud va oilaviy qulaylik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa, qoraqalpoq tilida uy konsepti kengroq ma’noda — avlod, qarindoshlik, urf-odat va jamoaviy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shunday ekan, mazkur maqolaning dolzarbligi ingliz va qoraqalpoq tillarida uy konseptining lingvokulturologik jihatdan qiyosiy o‘rganilishi orqali milliy mentalitetdagi umumiylik va farqlarni aniqlashdan iboratdir.

Metodologiya. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya yutuqlariga tayanib ishlab chiqildi. Avvalo, mazkur tadqiqotda konsept tushunchasi A. Vejbitskaya, S.Ju, V. Karasik, E. Kubryakova kabi olimlarning nazariy qarashlari asosida talqin qilindi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, konsept til birliklari orqali ifodalanadigan, ammo madaniyat, tafakkur va ijtimoiy tajriba bilan uzviy bog‘langan murakkab mental tuzilma sifatida qaraladi [5;6;7;12].

Birinchi bosqichda adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Jumladan, ingliz tilshunosligida home konsepti bo‘yicha G. Lakoff va M. Johnsonning metafora nazariyasi [8], shuningdek, R. Langackerning kognitiv grammatika haqidagi qarashlari tahlil qilindi [9]. Ushbu tadqiqotlarda home tushunchasi ko‘pincha makon, xavfsizlik va shaxsiy identifikatsiya bilan bog‘liq konseptual metaforalar orqali izohlanadi. Shu bilan birga, ingliz madaniyatida uy tushunchasining individualistik xususiyatlari til materiallari asosida yoritilgan.

Qoraqalpoq va turkiy tillar doirasida esa uy konsepti masalasi Aytiniyazova, S. E. Malov, O. Anorqulova shuningdek, zamonaviy qoraqalpoq va o‘zbek tilshunoslarining lingvokulturologik tadqiqotlari asosida o‘rganildi [2;10;13]. Ushbu adabiyotlarda uy konsepti asosan an’anaviy turmush tarzi, qarindoshlik munosabatlari va milliy mentalitet bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Demak, adabiyotlar tahlili ingliz va qoraqalpoq tillarida uy konseptining talqinida metodologik farqlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Ikkinchi bosqichda konseptual tahlil metodi qo‘llanilib, home / uy konseptining yadrovii, yaqin periferik va uzoq periferik qatlamlari aniqlandi. Ushbu metod yordamida lug‘aviy birliklar, frazeologizmlar va paremiologik materiallar tahlil qilinib, konseptning asosiy semantik belgilar tizimi ishlab chiqildi.

Uchinchi bosqichda qiyosiy-tipologik metod asosida ingliz va qoraqalpoq tillaridagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlandi. Bu metod konseptning universal va milliy xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, diskursiv va kontekstual tahlil metodlari orqali badiiy hamda publitsistik matnlarda home / uy konseptining aktualizatsiyasi o‘rganildi. Natijada, konseptning nafaqat lug‘aviy-semantik, balki aksiologik va pragmatik qatlamlari ham aniqlashtirildi.

Xullas, qoʻllanilgan metodologik yondashuvlar majmui ingliz va qoraqalpoq tillarida home / uy konseptining lingvokulturologik mohiyatini kompleks va tizimli tarzda ochib berishga xizmat qildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari ingliz va qoraqalpoq tillarida home / uy konseptining murakkab, koʻp qatlamli lingvokulturologik tuzilishga ega ekanini yanada aniqroq koʻrsatdi. Avvalo, konseptning yadroviy qatlami har ikki tilda ham yashash joyi, boshpana va xavfsizlik makoni kabi universal semantik belgilardan tashkil topadi. Biroq, periferik va assotsiativ qatlamlar milliy tafakkur, tarixiy tajriba hamda ijtimoiy munosabatlar taʼsirida sezilarli farqlarga ega ekanligi aniqlandi.

Ingliz tilida home konsepti koʻproq individga yoʻnaltirilgan boʻlib, shaxsiy hudud, mustaqillik va psixologik qulaylik bilan uzviy bogʻlangan. Masalan, “There is no place like home” paremiyasi uyga boʻlgan hissiy bogʻliqlikni ifodalasa, “to feel at home” iborasi muhitga moslashish va ichki xotirjamlik holatini bildiradi. Shuningdek, “home office”, “home town” kabi birikmalar home tushunchasining semantik kengayishini va zamonaviy ijtimoiy hayotga moslashuvchanligini koʻrsatadi. Demak, ingliz lingvomadaniyatida home shaxsiy identitet va hayot sifati bilan chambarchas bogʻliq konsept sifatida shakllangan.

Qoraqalpoq tilida esa uy konsepti jamoaviylik va anʼanaviylik tamoyillari asosida namoyon boʻladi. Masalan, “Óz úyim-ólen tósegim” maqolida uy baraka va farovonlik manbai sifatida talqin qilinsa, “Barar jeriń mıń bolsa da, Jataq jeriń bir bolsın” paremiyasi jataq jer yaʼni uy tushunchasi inson hayotida doimiy makon, oʻz uyi va vatanning beqiyos ahamiyatini ifodalaydi. Qayerga bormasin, insonning ruhiy tayanchi va qaytish joyi yagona boʻlishi kerak, degan hayotiy haqiqatni yuksak badiiy shaklda aks ettiradi. Bundan tashqari, “kelin túsirgen úy”, “ata úy” kabi birikmalar uy konseptining ijtimoiy-madaniy funksiyalarini ochib beradi. Shunday qilib, qoraqalpoq madaniyatida uy nafaqat yashash joyi, balki muqaddas makon va milliy xotira timsoli hisoblanadi.

Tahlil jarayonida shuningdek, ingliz tilida home konseptining metaforik va koʻchma qoʻllanishi yuqori ekani, qoraqalpoq tilida esa uy tushunchasi asosan literal va aksiologik barqaror maʼnoda ishlatilishi aniqlandi. Bu holat ingliz jamiyatida urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarining kuchli taʼsiri, qoraqalpoq xalqida esa anʼanaviy turmush tarzining uzoq saqlanib kelgani bilan izohlanadi.

Quyidagi jadvalda ingliz va qoraqalpoq tillarida home / uy konseptining asosiy lingvokulturologik belgilari va ularning misollari qiyosiy tarzda keltiriladi:

Tahlil mezonlari	Ingliz tilida home (misollar)	Qoraqalpoq tilida uy (misollar)
------------------	-------------------------------	---------------------------------

Yadroviy ma'no	Yashash joyi (<i>home</i> , <i>house</i>)	Yashash joyi (<i>úy</i> , <i>baspana</i>)
Hissiy mazmun	<i>There is no place like home</i>	Óz úyim-ólen tósegim
Metaforik qo'llanish	<i>feel at home</i> , <i>home town</i>	Áke úyindey arqayın bolıw
Ijtimoiy funktsiya	Shaxsiy hudud, mustaqillik	Oila, qarindoshlik markazi
Madaniy ramz	Individual identitet	Avlod va an'ana timsoli

Keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, *home* / *uy* konsepti har ikki tilda ham ijobiy aksiologik bahoga ega bo'lsa-da, uning semantik to'ldirilishi va madaniy talqini milliy mentalitet bilan bevosita belgilanadi. Shu bois, *uy* konsepti universal tushuncha bo'lishiga qaramay, har bir til va madaniyatda o'ziga xos konseptual model asosida shakllanadi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari ingliz va qoraqalpoq tillarida *home* / *uy* konseptining lingvokulturologik talqini milliy tafakkur, ijtimoiy tuzilma va tarixiy tajriba bilan bevosita bog'liqligini yaqqol namoyon etdi. Olingan natijalarni muhokama qilish jarayonida konseptning universal va milliy xususiyatlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni alohida ta'kidlash zarur.

Avvalo, ingliz tilidagi *home* konseptining individualistik xarakterga ega ekanligi G. Lakoff va M. Johnson tomonidan ilgari surilgan konseptual metafora nazariyasi bilan mos keladi [8]. Ya'ni, *home* ko'pincha shaxsiy makon, ichki xotirjamlik va psixologik barqarorlik bilan bog'liq holda idrok etiladi. Bu holat zamonaviy ingliz jamiyatida shaxs erkinligi va individual hudud tushunchalarining ustuvorligi bilan izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan, *home* konsepti ingliz madaniyatida shaxsiy identitetni shakllantiruvchi muhim omil sifatida qaraladi.

Qoraqalpoq tilidagi *uy* konseptining tahlili esa ushbu tushunchaning kollektiv ong va an'anaviy qadriyatlar bilan chuqur integratsiyalashganini ko'rsatdi. *Uy* tushunchasi bu yerda nafaqat jismoniy makon, balki avlodlar xotirasi, qarindoshlik munosabatlari va ijtimoiy mas'uliyatni mujassamlashtiruvchi ramzdir. Bu jihat S.Ju tomonidan ilgari surilgan "madaniy konstantalar" nazariyasi bilan uyg'unlashadi, chunki *uy* qoraqalpoq madaniyatida barqaror va muqaddas qadriyat sifatida saqlanib kelmoqda [5].

Shu bilan birga, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va qoraqalpoq tillarida *home* / *uy* konseptining aksiologik bahosi umumiy ijobiy xarakterga ega. Har ikki madaniyatda ham *uy* xavfsizlik, osoyishtalik va barqarorlik manbai sifatida idrok etiladi. Biroq, ushbu ijobiy bahoning mazmuniy to'ldirilishi turlicha bo'lib, ingliz tilida u shaxsiy qulaylik va mustaqillik bilan, qoraqalpoq tilida esa jamoaviy barqarorlik va axloqiy qadriyatlar bilan ifodalanadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat sifatida konseptning dinamik xususiyati aniqlanadi. Ingliz tilida home konsepti zamonaviy ijtimoiy jarayonlar — migratsiya, urbanizatsiya va raqamli hayot tarzi ta'sirida semantik kengayishga uchramoqda. Qoraqalpoq tilida esa uy konsepti nisbatan barqaror bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, zamonaviy diskursda uning funksional jihatdan yangicha talqinlari shakllanayotganini kuzatish mumkin.

Xullas, muhokama natijalari shuni tasdiqlaydiki, home / uy konsepti universal asosga ega bo'lsa-da, uning lingvokulturologik mazmuni har bir xalqning tarixiy va madaniy tajribasi bilan belgilanadi. Bu esa konseptlarni qiyosiy o'rganish til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz va qoraqalpoq tillarida home / uy konseptining lingvokulturologik tahlili ushbu tushunchaning nafaqat universal, balki chuqur milliy-madaniy mazmunga ega ekanini yaqqol namoyon etdi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, har ikki tilda ham uy konsepti inson hayotida markaziy o'rin egallab, xavfsizlik, barqarorlik va osoyishtalik ramzi sifatida idrok etiladi. Biroq, mazkur umumiylik bilan bir qatorda, konseptning mazmuniy to'ldirilishi va talqini milliy tafakkur bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ingliz tilida home konseptining asosan shaxsga yo'naltirilganligi, ya'ni individual erkinlik, shaxsiy hudud va psixologik qulaylik tushunchalari bilan chambarchas aloqador ekanini ko'rsatdi. Aksincha, qoraqalpoq tilida uy konsepti jamoaviylik, oilaviy rishtalar, an'anaviy qadriyatlar va avlodlar davomiyligini ifodalovchi muhim madaniy ramz sifatida namoyon bo'ladi. Demak, har ikki tildagi konseptual farqlar tarixiy rivojlanish, ijtimoiy tuzilma va madaniy tajriba bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, qo'llanilgan konseptual, qiyosiy-tipologik va diskursiv metodlar home / uy konseptining yadroviiy va periferik qatlamlarini tizimli tarzda ochib berish imkonini berdi. Natijada, uy konseptining lingvistik ifodasi bilan bir qatorda, uning aksiologik va madaniy qatlamlari ham aniqlashtirildi. Shu bois, mazkur tadqiqot lingvokulturologiyada konseptlarni qiyosiy o'rganish metodologiyasining samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, home / uy konseptini ingliz va qoraqalpoq tillari materiallari asosida tahlil qilish til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu konseptni boshqa tillar va diskurs turlari doirasida o'rganish, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy jarayonlar ta'sirida uning semantik o'zgarishlarini tahlil qilish lingvokulturologik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy istiqbollarni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdinazimov Sh, Tolibaev X. Lingvokulturologiya. (Oqir qollanba). Nókis. «Qaraqalpaqstan» baspası. 2020-jıl. 140 b.

2. Aytiniyazova, N. (2025). O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI PAREMIYALARNING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTI. Uzbekistan language and culture, 1(1).
3. Croft, W., & Cruse, D. A. (2004). Cognitive linguistics. Cambridge University Press.
4. Evans, V., & Green, M. (2018). Cognitive linguistics: An introduction. Routledge.
5. Ju, S. (2004). Konstanty: slovar'russkoj kul'tury.
6. Karasik, V. NEW RUSSIANS IN ANEKDOTS//Russian Journal of Communication. Vol. 2, Nos. 3/4 (Summer/Fall 2009) P. 289-305.
7. Kubryakova, S., Demyankov, V.Z., Pankrats, G. & Lusin, L.G. (1996) Concise Dictionary of cognitive terms. [Kratkiy slovar kognitivnykh terminov] M.
8. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. Chicago: Univ. Press, Chicago/IL.
9. Langacker, R. W. (1987). Foundations of cognitive grammar: Volume II: Descriptive application.
10. MALOV, S. (1951). Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti, Moskva, Leningrad. Eski Türk Anıtları). Rusça, 5-7.
11. Qaraqalpaq folklori. Kóp tomliq. 1-8 tomlar. Nókis: Qaraqalpaqstan, 2007.
12. Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. New York: Oxford University Press.
13. О. Аноркулова (2022). КОНЦЕПТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИДАГИ ТАДҚИҚИГА ДОИР МУЛОҲАЗАЛАР. Вестник магистратуры, (4-2 (127)), 52-55.